SIRDARYO VILOYATI GULISTON SHAHAR HOKIMI
QARORI

2021 - yil 7 - sentabr 85-9-130-Q/21 Guliston shahar hokimligi

Guliston shahar “Taraqqiyot” mahallasi Birlashgan ko‘chasiga yo‘l belgisi o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2013 yil 10 aprel kungi “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida” Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 24 dekabrdagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 370-sonli qarori, Guliston shahar IIO FMBning 2021 yil 12 avgustdagi “Guliston shahar “Taraqqiyot” mahallasi Birlashgan ko‘chasiga yo‘l belgisi o‘rnatish to‘g‘risida”gi 30/5662-sonli xati ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga asoslanib,

Qaror qilaman:

1. Guliston shahar IIO FMBning 2021 yil 12 avgustdagi “Guliston shahar “Taraqqiyot” mahallasi Birlashgan ko‘chasiga yo‘l belgisi o‘rnatish to‘g‘risida”gi 30/5662-sonli xati ijro uchun qabul qilinsin.

2. Guliston shahar ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (B.Sayitnazarov), Guliston shahar IIB YHXB (I.Begmatov)larga:

Guliston shahar “Taraqqiyot” mahallasi Birlashgan ko‘chasiga 3.27 “to‘xtash taqiqlangan” yo‘l belgisi o‘rnatilishi vazifasi yuklatilsin.

3. Shahar hokimligi matbuot kotibi (I.Zaxirov), mazkur qarorni “Guliston yangiliklari” gazetasida nashr etilishini va shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilish vazifasi yuklatilsin.

4. Shahar hokimligi devonxonasi (E.Nuriddinov), mazkur qarorni, qog‘oz va elektron shakllarda bir kunlik muddatda, tegishli davlat organlari hamda tashkilotlarga

yetkazilishini tashkillashtirsin.

5.Ushbu qaror rasmiy manbalarda e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari (B.Muratov) zimmasiga yuklatilsin.

Guliston shaxar xokimi **T.T.Dadabaev**